


Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**THE ONE-SIDED DEVELOPMENT OF TURKESTAN AGRICULTURE DURING THE RULE OF THE RUSSIAN EMPIRE AND ITS CONSEQUENCES****Charos Saidova**

Master's student

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: K. Palen, "Cotton Policy", customs duties, railway lines, duty, American cotton variety, metropolis, Turkestan Governor-General.

Received: 05. 01. 25**Accepted:** 07. 01. 25**Published:** 09. 01. 25

Abstract: This article explores the purpose of Tsarist Russia's "cotton policy" in Turkestan through a literature analysis. The country's agricultural development, the expansion of cotton fields, the population's attitude to this policy, and the problems that arose are studied.

ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA TURKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING BIR YOQLAMA RIVOJLANISHI VA UNING OQIBATLARI**Charos Saidova**

Magistratura talabasi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: K.Palen, "Paxta siyosati", bo'jxona to'lovlari, temir yo'l liniyalari, bo'j, Amerika paxta navi, metropoliya, Turkiston general gubernatorligi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Podsho Rossiyasining Turkistondagi "paxta siyosati" dan ko'zlangan maqsad adabiyotlar tahlili orqali ochib berilgan. Mamlakat qishloq xo'jaligining izdan chiqishi, paxta maydonlarining kengayishi, aholining bu siyosatga nisbatan munosabati hamda kelib chiqqan muammolar o'rganilgan.

ОДНОБОКОЕ РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА ТУРКЕСТАНА В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЯ**Чарос Саидова**

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: К. Пален, «Хлопковая политика», таможенные сборы, железнодорожные пути, пошлина, американский сорт хлопка, метрополия, генерал-губернатор Туркестана.

Аннотация: В статье на основе анализа литературы раскрываются цели «хлопковой политики» царской России в Туркестане. Изучены развал сельского хозяйства страны, расширение хлопковых полей, отношение населения к этой политике и вытекающие из этого проблемы.

Jahon davlatlari tarixiy taraqqiyotining o'ziga xosligi va notekisligi bugungi kun dunyo davlatlarining rivojlanish darajasini belgilab berdi. Sanoat inqilobi bilan bog'liq ravishda Yevropa davlatlarining taraqqiyotdan ilgarilab ketishi qoloq davlatlarning mustamlaka qilinishi va ulardagi mavjud resurslar, tabiiy boyliklar va tekin ishchi kuchini o'zlashtirilishi hisobiga amalga oshdi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati ham rivojlanishda Yevropa davlatlaridan ortda qolmaslik va o'zining iqtisodiy, moliyaviy imkoniyatlarini O'rta Osiyoni bosib olish hisobiga yaxshilash edi. Xususan Rossiya imperatori saroyida to'plangan rus iqtisodchilarining hisob-kitoblari natijasida O'rta Osiyoni egallash rejasi bosqichma bosqich amalga oshirildi.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy maqsadlarini senator K.Palen o'z hisobotida quyidagicha ifodalagan edi: "Turkistonni istilo qilishning siyosiy sabablarini hisobga olmaganda ham, bu o'lka Rossiya tarafidan bosib olingan dastlabki kunlardanoq rus hukumati uchun ikki jihatdan qiziqish uyg'otgan edi. Birinchi bu moliyaviy siyosat jihatidan, yangi davlat daromadi manbai va ichki ishlab chiqarish mahsulotlari uchun yangi bozor bo'lgan bo'lsa, ikkinchi jihatdan bu mustamlakachilik siyosati nuqtai nazaridan markaziy guberniyalardagi ortiqcha aholini ko'chirish uchun yangi hudud sifatida diqqatga loyiq edi. Shu bilan birga uchinchi yanada muhim sabablaridan biri ya'ni Rossiya Davlat mulklari va Ziroatchilik vaziri A.V.Krivoshien fikricha rus tekstil sanoati uchun zarur hom ashyo muammosini hal qilishga qaratilgan "Paxta siyosati" edi.

Nima uchun Rossiya imperiyasi bu siyosatni keng miqyosda yoyilishidan manfaatdor bo'ldi? Buning bir nechta sabablari bor edi:

Birinchidan, Podsho hukumatining bojxona to'lovlari masalasida Amerika paxtasiga qo'yilgan narxlarning keskin ko'tarilishi rus to'qimachilik sanoati mahsulotlari tannarxining oshishiga va jahon bozoridagi raqobatga dosh bera olmasligiga sabab bo'ldi. Chunonchi, XX asrning 80-yillariga kelib 1pud paxta uchun 40 tiyin boj undirilar edi. 1894-yilga kelib 3so'm 70 tiyinga yetdi. 1878 yil 22 dekabrda Davlat Kengashi tomonidan tasdiqlangan qonunga ko'ra 1879 yilning 1 yanvaridan boshlab chetdan olib kelinadigan paxtaning har pudiga 40 tiyin oltin pul miqdorida boj to'lovi joriy qilindi.

1887 yildan ushbu boj to'lovi dengiz orqali olib kelingan paxta uchun 1 rubl, quruqlik yo'li orqali keltirilgan paxta uchun 1 rubl 15 tiyin qilib belgilandi. 1894 yildan chetdan olib kelinadigan

paxtadan undiriladigan boj to'lovi 3 rubl 15 kopeyek, 1900 yildan 4 rubl 15 kopeyek miqdorida o'rnatildi. Nihoyat 1915 yil 28 fevraldan boshlab bu ko'rsatkich 5 rubl 75 kopeyekga yetdi.

Ikkinchidan, Turkiston general gubernatorligi tuzilishi va asosiy tranzit hamda paxta uchun unumdor yerlarga temir yo'l tizimining joriy etilishi. Bu o'z navbatida chetdan eksport tannarxidan ko'ra arzonroqqa tushar edi. Chunki temiryo'l faqat bir maqsad askarlarni joylashirish va tinchlikni saqlashga qaratilmagan edi.

O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus raqobatining keskinlashuvi va XIX asrning 80-yillarida Sharqdagi harbiy-siyosiy voqealar Rossiya imperiyasi hukmron doiralarini o'lkada temir yo'llar qurilishini tezlashtirishga majbur etdi. Zero, temir yo'l qurilishi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi harbiy mavqeini mustahkamlab, siyosiy hukmronligini ta'minlardi. Shu bois 1880 yildan 1899 yilga qadar umumiy uzunligi 2368 verst temir yo'l liniyalari qurildi. Bu esa o'z navbatida Rossiyaning qo'shimcha harbiy kuchlarini ikki hafta ichida Kavkazdan O'rta Osiyo hududlariga keltirish imkonini berdi. Vaholanki, Angliyaning Hindistondagi oxirgi temir yo'l bekatiga o'z qo'shinlarini yetkazib kelishi uchun kamida bir oy vaqt talab qilinardi.

Bunyod etilgan temir yo'l liniyalari o'lka hududdan ko'plab tayyor mahsulotlar va xom ashyo olib ketish ko'lamini kengaytirdi. Chunonchi, O'rta Osiyo temir yo'li bir kunda 17 juft poyezdlar eshalonini o'tkazishga qodir edi.

Rossiya imperiyasining harbiy-siyosiy ustunligini ta'minlash maqsadida qurilgan O'rta Osiyo temir yo'li mintaqaning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etmay qolmadi, albatta. Temir yo'l tarmoqlarining ishga tushirilishi o'lkada savdo-sanoat taraqqiyoti va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishiga, kapitalistik munosabatlarning rivojiga sabab bo'ldi.

Uchinchidan, Turkiston paxtasining narxi Amerika paxtasinikidan arzonligi. Masalan urushgacha bo'lgan davrda paxta navi ikki turdagisi mahalliy va Amerika navidan ko'p foydalanilgan bo'lsa, mahalliy nav 1pudga ko'ra 1so'm 20tiyindan 3 so'mgacha; Amerikadan keltirilgan navi esa 6so'mdan 8so'mgacha edi. Urush yillariga kelib esa 1pud Turkiston paxtasi 7 so'mdan 10 so'mgacha tushgan bo'lsa, import paxta 18 so'mni tashkil qilgan. Turkistonda paxta yetishtirish o'z navbatida 100 million so'mni tejashga, capitalist boylarning yuqori daromadiga olib kelgan. Bu sabablar esa paxta maydonlarini yanada kengaytirishga, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish kamayishiga amalda Rossiyaga aholining qaramligi kuchayishiga, asosan g'alla mahsulotiga, urush yillaridagi noturg'un vaziyat ocharchilikka, sug'orish tizimlari takomillashib, kanallar qurulishiga- rus ma'muriyati suniy sug'orishning o'lka hayotidagi ulkan o'rnini anglab, uni rivojlantirish lozimligini imperatorga ma'lum qilib borgan.

Turkiston general-gubernatori Vrevskiy 1895-1897 yillar uchun bergan hisobotida shunday yozadi: "Suniy sug'orishni tartibga solish va uni rivojlantirib borish dehqonchilik vazirligi mahalliy

tashkilotlarining asosiy vazifasi bo'lishi lozim. Chunki faqat shu yo'l bilangina Turkistondagi davlat yerlarining daromadini oshirish mumkin. Shu bilan birga, o'lkadagi unumdor yerlardan katta daromad olinishi natijasida sanoatimizni va savdoni chet el qaramligidan ozod qilishimiz mumkin.

Aslida bu turdagi siyosat yuritishga asos bo'lib hizmat qilgan voqea bu Rossiya shaharlarida sanoat inqilobining yuz berganligi, mamlakatda to'qimachilik ishlari yaxshi yo'lga qo'yilib, birinchi navbatda raqobatsiz keng bozorga ega bo'lish, ikkinchidan xomashyo yetkazib beruvchi arzon ishchi kuchiga asoslangan tizimni vujudga keltirish edi.

Dastlabki ishlar Turkiston ichki imkoniyatlari, qay darajada talabga javob berishi o'rganildi, paxta uchun unumdor yerlar maydoni, aholining noroziligisiz bu yerlarni kengaytirish siyosati yuritildi. Podsho hizmatchisi A.N.Krivosheyning ta'kidlashicha- Turkistonda yetishtirilgan paxta Amerika paxtasi bilan raqobat qilaoladi. Shuning uchun mamlakatga g'alla olib kelib sotish lozimligi, Turkiston esa paxta yetishtirishga to'liq moslashtirish kerakligi aytiladi. Bu fikr to'la o'ylab ko'rilmagan qisman adolatli hisoblanadi. Chunki Rossiya fabrikalari paxta bilan ta'minlanadi ammo mahalliy turkiston aholisi o'rtasida ocharchilik, narx-navoning keskin ko'tarilishi kuzatiladi. Ayniqsa urush yillarida.

Asosan haxtaning uch turdagi navi yetishtirilgan: Toshkent-Qo'qon; Buxoro va Xiva. Keyinchalik Amerikadan "sea-island", "upland" navlari keltiriladi. Chunki Amerika navi serhosil bo'lgan.

1-jadval

1 desyatina yerdan	Mahalliy paxtadan	Amerika paxtasidan
Hosilning yetilish muddati	150 kun	128 kun
Birinchi terim	39.0 %	71.2 %
Hosildorlik	77 pud	127 pud
Tolaning chiqishi	27.0-29 %	31-36 %
Tola uzunligi	20.0-23.5 mm	23.2-24.8 mm
Foyda	290 rub.	486 rub.

Shunday qilib, amerika paxta navi o'zining qulay tomonlari va iqtisodiy jihatdan daromadli ekanligi uchun keng yer maydonlarini egallab bordi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 1888 yilda Turkiston o'lkasining uchta viloyatida, ya'ni Sirdaryoda – 15.745 desyatina , Samarqandda – 1000 desyatina va Farg'onada 20.483 ming desyatina yerga amerika paxta navi ekildi. Shu yili amerika navidan olingan umumiy hosil 563.000 ming pudni tashkil qildi. Viloyatlar bo'yicha bu ko'rsatkich Sirdaryoda 270.000, Farg'onada 278.000, Samarqandda 15.000 ming pudga to'g'ri keldi. O'z navbatida mahalliy paxta navi ekilishi bir muncha qisqardi. 1888 yilda Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida jami 48.299 ming desyatina maydonga paxta ekilib, 525.000 ming pud hosil olindi.

Albatta aholi bu siyosatga shunchaki ko'nikib, birdan qo'llab quvvatlab ishga kirishib ketmadi. Metropoliya tizimni yo'lga qo'yish va kuch ishlatmasdan o'z siyosatiga aholini bo'ysundirish uchun quyidagicha amaliy rag'batlar joriy qildi:

1. 1891 yil 11 iyunda qabul qilingan qonunga ko'ra paxta ekilgan yer maydonlaridan undiriladigan soliq miqdori boshqa ekinlarga belgilangan, yalpi daromadning 10 foizi miqdorida to'lanishi lozim bo'lgan soliqdan ancha kam bo'lgan. Mazkur qonunga asosan paxta ekiladigan yerlarning imtiyozli soliqqa tortilishi vaqtinchalik chora sifatida 6 yil muddatga belgilangan edi.

2. 1900-yil 10-iyunda mazkur imtiyoz qonun bilan tasdiqlandi va doimiy imtiyozga aylandi. Bu esa boshqa maxsulotlar uchun yer qisqartirilib, paxta uchun ajratilishiga ammo oziq ovqat qimmatlashib, hatto askarlar oziq ovqatining narxi oshib ketishiga sabab bo'ldi.

Garchi ma'lum miqdorda imtiyozlar ajratilgan bo'lsa ham mamlakatda paxta siyosatiga oid, oddiy dehqon emas o'rtada turgan vositachi va kapital egasi foyda ko'rdi. Ocharchilik yillarida vada qilingan g'alla olib kelinmadi, natijada aholi makkajo'xori poyasidan un olib, go'ja qilib ichishga majbur bo'ldi. Maxsulot tannarxlari bir necha barobar, urush yillarida 200-500 baravargacha oshishi kuzatildi. Yo'lga qo'yilgan kredit tizimi ham bu inqirozni to'la oldini ololmadi.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati faqat Rossiya davlatining manfaatlariga qaratilgan bo'lib, Turkiston aholisi bo'lgan xalqimizning chor istibdodi zulmi ostida qolishiga, turmush tarzining yomonlashishiga, qishloq xo'jaligining bir tomonlama rivojlanishira, ekin maydonlarining qisqarishi, yuqori navli poliz ekinlari va serhosil bog'dorchilik meva navlarining yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi. Eng muhimi uch ming yillik davlatchilik an'analari ega bo'lgan hududda yashagan xalqimiz o'zligidan, erkidan mahrum etildi. Natijada, xalqning siyosiy hukumatdan noroziligi XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston qo'zg'alonlar ichida qolishiga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov.X.X. O'zbekistonda paxtachilik tarixidan, Mehridaryo. T:2007.
2. Ахмеджанова З.К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917). – Ташкент: Наука, 1965.
3. Верховский Н.П. Хлопководство в Туркестане. – СПб., 1910.
4. Суворов В.А. Историко экономический очерк развития Туркестана (по материалам железнодорожного строительства в 1880-1917 гг.). – Ташкент: Госиздат. УзССР, 1962
5. Юфевев В.И. Хлопководство в Туркестане., – Л.,1925.
6. Соатов. С. Урта Осиёнинг Россияга кушиб олиниши ва унинг прогрессив ахамияти. – Фан: 1966

7. Tuxtabekov K.A. Chor Rossiyasining birinchi jahon urushi yillarida o'tkazgan iqtisodiy siyosatining mustamlakachilik mohiyati. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. –T., 2011